



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:  
namexpert@umail.uz www.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:30-08-2021 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 19044**

**Obyekt nomi** «Namangan viloyati Namangan shahar “Dashtbog” MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash»

**Buyurtmachi** - “Suv ta'minoti va oqava suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi” UK Namangan viloyati hududiy boshqarmasi

**Bosh loyihachi** - “O'zbekkommunalloyihaqurilish” DUK

**Litsenziya** AL-000324 2.11.2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

**Moliyalashtirish manbai** - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi “Suv ta'minoti va oqava suv tizimini rivojlantirish jamg'armasi” hisobidan

**Bosh pudratchi** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-apreldagi 230-sonli qaroriga asosan - “Yangi avlod qurilish invest” MCHJ

**Qurilish turi** Yangi qurilish

**Murojaat raqami:** № 17898

**1. Loyihalash uchun asos**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5048-sonli qarori.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-apreldagi 230-sonli qarori.
- 1.3. Namangan shahar hokimining 2021-yil 19-apreldagi 251-sonli qarori.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi “O'zsvu'ta'minot” AJ tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi hamda buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.5. Namangan viloyat Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021-yil 7-iyundagi 1714-1714401-21393-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.6. Muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar.
- 1.7. “O'ZGASHKLITI” DUK Namangan filiali tomonidan 2021-yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

- 2.1. Yordamchi loyihachi “OMAD ISHONCH KELAJAK LOYIHA” MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan “Ishchi loyiha”ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Tashqi suv tarmog'i. Umumiy ma'lumotlar, suv tarmog'ining rejasi, bo'ylama kesim, jixoz va uskunalarga bo'lgan ehtiyoj jadvali.

- Qurilish qiymatining tavsiyaviy qismi.

2.2. Buyurtmachi bilan kelishilgan va pudratchi tomonidan tasdiqlangan qurilish materiallari va jixozlari narxlari o'zaro kelishuv bayonnomasi.

2.3. Buyurtmachining 2021-yil 20-avgustdagi 307-sonli xati.

### **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

#### **3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.**

Loyihalanayotgan suv tarmog'i Namangan shahar "Dashtbog'" MFY hududida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14os. Me'yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa, shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida suglinok (qatlam qalinligi 2,4 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi – II. Cho'kuvchanligi bo'yicha 2-guruh tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari 5 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relyefi – tekis.

#### **3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.**

Loyihalanayotgan suv tarmog'i polietilen quvurlardan iborat bo'lib, umumiy uzunligi – 6539 metr, shu jumladan: Ø160mm – 3579 metr, Ø110mm – 2960 metr. Tarmoqda yig'ma temir-beton quduqlar ko'zda tutilgan. Quvurlarni yotqizish chuqurligi yer yuzasidan quvur tubigacha 1,2 metrni tashkil etadi. Suv quvurini yo'ldan kesib o'tishi uchun po'lat quvurdan g'ilof ko'zda tutilgan. Loyihalanayotgan suv tarmog'i Namangan shahar "Dashtbog'" MFY hududidagi aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

4.1. *Suv ta'minoti* – "Namangan suv ta'minoti" MCHJ Namangan shahar bo'limining 4.06.2021-yildagi 02/1101-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv tarmog'i qabul qilingan.

### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

- Suv tarmog'ining bosh rejasi buyurtmachi, Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi, "Namangan suv ta'minoti" MCHJ, "Hududgaz Namangan" gaz ta'minoti filiali, "O'zbektelekom" AK Namangan filiali, "Namangan hududiy elektr tarmoklari korxonasi" AJ, Namangan viloyati SEO va JSB bilan kelishilgan.

- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 12.08.2021-yildagi 01-19/01-815-sonli xulosasi.

### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ta'kidlansinki, ekspertiza qarovi jarayonida loyiha hujjatlariga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (muayyan ekspertiza xulosasidagi kamchiliklarga ko'ra):

6.1.1. Tarmoq gidravlik va sarfiy hisobi – taqdim etildi.

6.1.2. Avtomobil yo'llarini kesib o'tishda quvurlarni himoyalash maqsadida temir g'iloflar – ko'zda tutildi.

6.1.3. Bo'ylama qirqim chizmalarida o'lchamlari – o'zgartirildi.

6.1.4. Tashqi suv quvurlarini yer ostida yotqizish ko'ndalang qirqim chizmasi alohida tugunda – ishlandi.

6.1.5. Tasdiqlangan loyiha topshirig'i asosan loyihada "epoksid" koplamali zadvijskalari - ko'zda tutildi.

6.1.6. Jixoz va uskunalarga bo'lgan ehtiyoj jadvali - o'zgartirildi.

6.2. Qurilish bahosini hisoblash.

Ekspertiza natijasiga ko'ra QQS bilan qurilish bahosi - **2618704,757 ming so'mga** tavsiya etildi.

Bundan tashqari buyurtmachining boshqa xarajatlari - **135804,247 ming so'm**.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2016-yildagi 15-son qarorining 4 ilova, II-bob, 8-bandiga muvofiq taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va loyihachiga (qabul qilingan loyihaviy yechimlari bo'yicha) yuklatiladi.

## **7. Xulosalar.**

7.1. Namangan viloyati Namangan shahar "Dashtbog'" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash ishchi loyihasi ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan narx shartnoma tuzish uchun asos bo'la olmaydi.

7.2. Obyektning bahosi bo'yicha yakuniy qarorni buyurtmachi bilan pudratchi SHNQ 4.01.16-09 talablari asosida nazorat o'lchovi natijasiga ko'ra aniqlangan xaqiqatda bajarilgan ish xajmlariga asosan qabul qiladi.

**Izoh:** Yer qazish ishlarini boshlashdan avval, zaruratga ko'ra muhandislik tarmoqlaridan foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar hamda yo'l korxonasi vakillari ishtirokini ta'minlash lozim.

Ekspert: I.Karimov

**Bosh mutaxassis:** MAXKAMOV TOXIR MARIFJONOVICH